FOLKLORSHUNOS OLIM MAMATQUL JO‘RAYEVNING ILMIY FAOLIYATI

Anorboyeva Maftuna Abilqosim qizi
E-mail: maftunaustoz@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23318406

Annotatsiya: Maqolada yetuk folklorshunos olim Mamatqul Jo‘rayevning o‘zbek folklorshunosligida tutgan o‘rni yoritilgan. Olimning sehrli raqamlar va samoviy afsonalar borasida olib borgan ilmiy tadqiqotlari tavsiflangan. Marosim folkloriga oid izlanishlari va “Navro‘z bayrami” asari haqida ma’lumot berilgan. Shogirdlikdan ustozlik maqomiga yetishish yo‘li bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: folklor, etnofolkloristika, sehrli raqamlar, afsona, mif, osmon jismlari, marosim.

Аннотация: В статье рассматривается место видного фольклориста Маматкула Джураева в узбекской фольклористике. Описываются научные исследования учёного в области магических чисел и небесных легенд. Приводятся сведения о его изысканиях по обрядовому фольклору и о труде «Праздник Навруз». Освещён путь учёного от ученика до наставника.
Ключевые слова: фольклор, этнофольклористика, магические числа, легенда, миф, небесные тела, обряд.

Abstract: The role of the distinguished folklorist Mamatkul Juraev in Uzbek folkloristics is examined. The scholar’s research on magic numbers and celestial legends is described. Information is provided about his studies of ritual folklore and his work “The Navruz Festival”. The article also highlights his academic journey from student to respected mentor and scholar.
Keywords: folklore, ethnofolkloristics, magical numbers, legend, myth, celestial bodies, ritual.

Kirish. Xalqimiz badiiy salohiyatining asrlar davomidagi izchil taraqqiyoti natijasida xilma-xil janrlardan iborat og‘zaki badiiy ijod durdonalari yaratilgan. O‘zbek xalq ijodiyoti ajdodlarimizning ko‘p asrlik badiiy tafakkur mahsullarini o‘zida mujassamlashtirgan bebaho milliy qadriyatlar tizimi sanaladi. O‘zbek folklori namunalarini yozib olish, nashr qilish va tadqiq etish ishlari o‘tgan asr boshlarida boshlangan bo‘lsa-da, xalq og‘zaki ijodi durdonalarini mukammal nashr etish va har tomonlama o‘rganish imkoniyati mustaqillik yillarida yuzaga keldi. Xalq og‘zaki ijodiga e’tibor yanada kuchaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning xalqaro baxshichilik festivali ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida shunday deyilgan: “…Tengsiz ma’naviy boyligimiz bo‘lmish mumtoz san’atni, xalq ijodining nodir namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg‘or fikrli olimlar va san’atkorlarning, davlat va jamiyat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir” [1, 1-b.]. Mazkur e’tirofdan hamda “Alpomish” dostonining xalqaro miqyosda ming yilligi

nishonlanishi va “O‘zbekiston xalq baxshisi” unvoni ta’sis etilganidan xalq og‘zaki ijodiga yuksak e’tibor berilayotganini anglash mumkin. XX asrning 80-yillari, xususan, mustaqillik davri o‘zbek folklorshunosligi taraqqiyotida Asqar Musaqulov, Umurzoq Jumanazarov, Mamatqul Jo‘rayev, Shomirza Turdimov, Jabbor Eshonqulov kabi yetakchi olimlarning xizmatlari katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Mazkur maqolada folklorshunos olim Mamatqul Jo‘rayevning ilmiy faoliyati va uning o‘zbek folklorshunosligi rivojiga qo‘shgan hissasi yoritiladi.

Asosiy qism

Ilmiy faoliyatining boshlanishi. Har bir yosh tadqiqotchining fanga kirib kelishi, yetakchi olim sifatida shakllanishi hamda sohada o‘zining muqim o‘rnini egallashi muttasil o‘qib-o‘rganish va jiddiy izlanishlardan iborat murakkab ijodiy faoliyat bo‘lib, u bo‘lg‘usi olimdan yuksak sabot, intizom, o‘z yo‘lini topish uchun doimiy izlanish va o‘z ustida ishlashni talab etadi. Yosh tadqiqotchi Mamatqul Jo‘rayevda ana shunday intilishlar, fanga nisbatan o‘ziga xos fidoyilik namoyon bo‘lgan. Olimning bunday xislatlarini dastlab professor E. Begmatov payqagan va uni Folklor bo‘limida ishlashga tavsiya etgan: “U oliy ta’limdan keyin, 1978-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti Nutq madaniyati bo‘limiga ishga qabul qilinar ekan, bo‘lim tomonidan berilgan vazifalarni bajarish bilan birga o‘zicha bo‘limning umumiy yo‘nalishiga u yoki bu jihatdan aloqador bo‘lgan xalqimizning maishiy turmush tarzi, urf-odatlari bilan bog‘liq so‘z va atamalarni – etnografik leksikani hamda joy nomlari haqidagi afsona va rivoyatlarni to‘plashga kirishdi. Yosh tadqiqotchidagi bu intilishni hammadan oldin sezgan professor E. Begmatov uni Folklor bo‘limida ishlashga tavsiya etdi” [2, 4-b.].

O‘ta iste’dodli va g‘ayratli Mamatqul Jo‘rayev Folklor bo‘limida ish boshlagan 1981-yildan boshlab bir qator ilmiy ishlarni amalga oshirdi. Yosh tadqiqotchining “Miflarning yozma adabiyotga munosabati” [3], “O‘zbek folklorining epik janrlari” [4], “Ertaklardagi an’anaviy uch yo‘l motivining genezisi” [5], “To‘rt raqamining ertaklardagi badiiy funksiyasi” [6] kabi dastlabki ilmiy maqolalari fikrimizning dalilidir. Shu sababli ham u Folklor bo‘limiga ishga o‘tishi bilan o‘sha yillari bo‘limda tayyorlanayotgan “O‘zbek xalq maqollari”ning ikki jildli akademik nashri ishlarida faol qatnashgan. Yosh tadqiqotchi bu ulkan nashrning kartoteka bazasini yaratishda ishtirok etish bilan birga, sh, e, ya harflari bilan bog‘lanadigan maqollar qismini yozgan.

Xalq ijodi namunalarini to‘plovchilarni kimdir dengiz ostidan bebaho inju izlovchi matonatli g‘avvosga, yana kimdir javohir to‘plovchiga, folklorning o‘zini esa qaynar buloqqa yoxud oltin sandiqqa o‘xshatadi. Mamatqul Jo‘rayev asrlar davomida sayqallanib kelayotgan folklor namunalarini to‘plash maqsadida Folklor bo‘limi tomonidan tashkil etilgan ekspeditsiyalarning faol ishtirokchisiga aylandi. “Bora-bora sohaning yetuk mutaxassislaridan biri sifatida tanilgan M. Jo‘rayev folklor amaliyoti jarayonida to‘plagan tajribalari asosida taniqli folklorshunos olim Ohunjon Safarov hamda Abbos Tursunqulovlar bilan hamkorlikda “Folklor praktikasi” (1992) o‘quv-usuliy qo‘llanmasini yaratishda ham ishtirok etdi” [7, 29-b.]. U xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plash va nashrga tayyorlashda katta jonbozlik ko‘rsatdi.

Sehrli raqamlar tadqiqi

Olimning dastlabki yirik ilmiy tadqiqoti 1991-yilda nashr etilgan “O‘zbek xalq ertaklarida “sehrli” raqamlar” monografiyasidir. Mamatqul Jo‘rayevgacha 3, 4, 7, 9, 40 raqamlari shunchaki an’anaviy poetik tasvir vositalari sifatida talqin qilinar edi. Ushbu monografiyada olim “sehrli raqamlar” tushunchasini fanga kiritdi hamda raqamlarning ertaklardagi o‘rnini mutlaqo yangi yo‘nalishda – xalqimizning qadimiy qarashlari, maishiy hayoti va urf-odatlari bilan bog‘liq holda tahlil qildi. Jahon xalqlari marosimlari va folklorida keng qo‘llaniladigan bunday raqamlarning o‘zbek xalq ertaklaridagi o‘rni, tarixiy asoslari va poetik vazifalarini har tomonlama yoritdi, magik raqamlar (sehrli raqamlar) tizimining mifologik ildizlari va tarixiy asoslarini o‘rgandi. Tadqiqotchi ilmiy muammolarni hal qilishda faqat ertak materiallarini tahlil qilish bilan cheklanib qolmay, boshqa xalqlar folklori va yozma manbalariga ham murojaat etdi. Natijada magik raqamlar bilan bog‘liq xalq qarashlari va e’tiqodlarining tarixiy taraqqiyoti hamda folklorda turg‘unlashuv jarayoni “mif – marosim – folklor” bosqichlarini o‘z ichiga olishini ilmiy jihatdan isbotlab berdi.

Olimning ushbu dastlabki yirik tadqiqoti ilmiy jamoatchilik orasida katta e’tibor qozondi. Jumladan, Amerikaning Siyetl shahrida istiqomat qiluvchi taniqli olima, professor Ilza Lauda-Sirtautas o‘zi chop etgan o‘zbek xalq ertaklari nashriga yozgan “So‘ngso‘z”ida “… o‘zbek folklorshunos olimlarning safi yosh, umidli tadqiqotchilar hisobiga kengaymoqda. Mana shunday tadqiqotchilardan biri O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti Folklor bo‘limining ilmiy xodimi Mamatqul Jo‘rayevdir”, deb ta’kidlashi bejiz emas [2, 5-b.]. Hassos olimaning Mamatqul Jo‘rayev qiziqishlari va ilmiy salohiyatini o‘z vaqtida e’tirof etishi o‘zbek folklorshunosligining jahonga yuzlanganining yaqqol isbotidir. Yosh olimning “Raqamlarda yashiringan olam”, “Yetti iqlimdagi yettilar” (1989, hammualliflikda), “Sehrli raqamlar siri” kabi risolalari mavzu doirasi jihatidan birinchi yirik tadqiqotda qo‘yilgan va hal etilgan muammolar bilan uyg‘unlashib, ko‘p yillar davomida o‘zbek xalq ertaklarini nemis tiliga tarjima qilib, nashr etib kelgan xorijiy olimaning yuqoridagi xolis bahosini tasdiqlaydi hamda Mamatqul Jo‘rayevning katta iste’dodi va yuksak salohiyatini namoyon etadi.

Olimning o‘zbek folklorini dunyoga tanitishdagi hissasiga, uning xalqaro miqyosdagi faoliyatiga nemis olimi Gabriella Keller bilan olib borgan izlanishlari ham misol bo‘la oladi: “2017-yilda Germaniyada Gabriella Keller va H. Rahimov bilan hamkorlikda o‘zbek xalq sehrli ertaklarining 2 jildlik katalogini (“Typenkatalog Usbekischer Zaubermärchen (Klassifizierung mit Kommentaren). Band I–II. – Vorabdruck, 2017. – 800 p.”) chop ettirgan” [8, 320-b.].

Samoviy afsonalar tadqiqi. Dunyoning barcha xalqlarida bo‘lgani kabi o‘zbek folklorida ham koinotning paydo bo‘lishi, osmon yoritqichlarining joylashuv tartibi, quyosh va oy, kun va tun almashinuvini izohlovchi mifologik afsonalar ancha to‘plangan va ma’lum darajada tadqiq qilingan. Lekin bunday afsonalar to‘liq monografik tarzda o‘rganilmagan edi. Mamatqul Jo‘rayevning “O‘zbek xalq samoviy afsonalarining tarixiy asoslari” mavzusidagi doktorlik ishi folklorshunosligimizni yanada boyitdi. Ushbu tadqiqot asosida olimning “O‘zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar”, “O‘zbek xalq samoviy afsonalari” kitoblari nashr etildi. “O‘zbek xalq samoviy afsonalari” tadqiqotida samoviy afsonalar mavzu qamroviga ko‘ra tasnif qilinib, har bir tipga xos syujet silsilasi tadqiq etilgan. O‘zbek xalq samoviy afsonalari syujetini tashkil etuvchi asosiy motivlar turkiy-mo‘g‘ul va hind xalqlari folklori bilan qiyosiy asnoda o‘rganilgan. Quyosh va oy tutilishi, momaqaldiroq va chaqmoq, quyun, yulduz uchishi kabi tabiiy hodisalar bilan bog‘liq xalq qarashlari tahlil qilingan.

E’tiborli jihati shundaki, tadqiqotga jalb etilgan faktik materiallarning ma’lum qismini tadqiqotchining o‘zi yillar davomida yozib olgan va ilmiy muomalaga kiritgan.

Mamatqul Jo‘rayev yuqorida zikr etilgan monografiyalari va ko‘plab ilmiy maqolalarida og‘zaki nasrning ertakka kirmagan namunalari – mif, afsona, rivoyat va boshqalarning janr xususiyatlari hamda syujet tarkibini qiyosiy tadqiq etishda jiddiy natijalarga erishdi, ularni xalqimizning empirik bilimlari bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurligini isbotlab berdi. Og‘zaki nasr janrlarini tasnif qilishning ilmiy mezonlarini ishlab chiqdi va shu bilan o‘zbek folklorshunosligining nazariy ufqlarini yanada boyitdi.

Mifologiya va marosim folklori. Mamatqul Jo‘rayev folklorshunoslikda bir yo‘nalish va mavzu atrofida o‘ralashib qolmagan, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bilan bog‘liq yo‘nalishlar bilan cheklanmagan. U doim qamrovni keng olib, kam o‘rganilgan sohalarni tadqiq qilishga jiddiy e’tibor qaratganini alohida e’tirof etish zarur. Mifologiya va marosim folklori shunday sohalar sirasiga kiradi. Bu yo‘nalishda folklorshunoslikda M. Alaviyaning “O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari” [9], B. Sarimsoqovning “O‘zbek marosim folklori” [10] monografiyalari, G‘. Akromovning “O‘zbek xalq ijodida mifologiya” nomli dissertatsiyasi hamda uning vafotidan keyin Mamatqul Jo‘rayev tayyorlab nashr ettirgan “Mifologiya va o‘zbek adabiyoti” umumiy nomi ostidagi turkum maqolalar mavjud edi. Olim keyingi yillar faoliyatida mifologiya va marosim folklorini fundamental ravishda o‘rgandi, miflar va marosim folklori namunalarini nafaqat xalq ijodi va adabiyot, balki qadimiy yozma yodgorliklar, moddiy madaniyat, tasviriy san’at materiallari asosida keng tahlil qildi. Tadqiqot natijalari “O‘zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar”, “O‘zbek mifologiyasi va arab folklori” (2001, hamkorlikda), “O‘zbek mavsumiy marosim folklori”, “Mif, marosim va ertak” (2014, hamkorlikda) kabi kitob va risolalarda hamda ko‘plab ilmiy maqolalarda o‘z ifodasini topdi. Ularni 2015-yilda “O‘zbek folklori tarixi”ning birinchi jildida yirik monografik tadqiqot sifatida jamladi.

Olim o‘zbek mifologiyasini 1) etnologik; 2) kosmogonik; 3) shamsiy va qamariy; 4) antropogonik; 5) manistik; 6) totemistik; 7) kult miflari; 8) taqvim bilan bog‘liq miflar; 9) astral miflar tarzida tasnif etdi hamda ularning har biriga xos xususiyatlarni asosan o‘zi to‘plagan materiallar asosida atroflicha asoslab berdi. Mavsumiy marosimlar folklorini esa a) qishki, b) bahorgi, c) yozgi, d) kuzgi marosimlar folklori tizimida o‘rganib, ularning har biriga tegishli folklor namunalarini chuqur bilim bilan yoritib berdi. O‘zbek mifologiyasi va mavsumiy marosimlar folklorini bu tarzda keng ko‘lamda tadqiq etish o‘zbek folklorshunosligida birinchi marta amalga oshirildi.

Navro‘z bayrami tadqiqi

Mamatqul Jo‘rayev 2009-yilda chop etilgan “Navro‘z bayrami” kitobida shunday yozadi: “O‘ylab qarasam, yilboshi tantanalarini qarindosh-urug‘larim, hamqishloqlarim davrasida bayram qilish uchun o‘zim tug‘ilib o‘sgan qishloqqa borganimda yozgan “Quyosh yilnomasi va Navro‘z” nomli maqolam tuman gazetasida chop etilganiga ham, mana 30 yil bo‘libdi. Shundan keyin ajdodlarimizning ko‘p yillik kuzatishlari va fenologik bilimlari asosida kelib chiqqan an’anaviy xalq taqvimi hamda Navro‘z bayramining kelib chiqish tarixi, shakllanish bosqichlari, adabiy-tarixiy manbalardagi talqinlari, yilboshi tarkibiga kiruvchi udum, rasm-rusum va sayillar, Navro‘z folklori xususida ko‘pgina maqolalarim chop etildi” [11, 228–229-b.]. Chindan ham Navro‘z bayrami va uning folklorini doimiy ravishda o‘rganish atoqli olim ilmiy faoliyatining yana bir qirrasini tashkil qiladi. Olim bu yo‘nalishda bir qator maqolalar

e’lon qildi, “Navro‘z”, “Navro‘z qo‘shiqlari” nomli folklor to‘plamlarini chop ettirdi, 2009-yilda esa “Navro‘z bayrami” monografik tadqiqotini amalga oshirdi.

Targ‘ibotchilik va o‘quv adabiyotlari

Serg‘ayrat olim o‘zbek xalq ijodining mohir targ‘ibotchisi sifatida ham bir qancha ishlarni amalga oshirgan. U mamlakatimizdagi folklor-etnografik jamoalar va baxshilar ko‘rik-tanlovlarining doimiy ishtirokchisi hamda ularning ijodiy faoliyatini xolis baholovchi hakam bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi xodimlari bilan hamkorlikda yaratilgan “Ostonasi tillodan”, “O‘lan aytgali keldik”, “O‘zbek baxshilari” kitoblari uning hakamlik faoliyatini ko‘rsatib beradi.

Bundan tashqari, Mamatqul Jo‘rayev san’at va filologiya oliy o‘quv yurtlarining magistratura bosqichi talabalari uchun “Folklorshunoslikka kirish” (hammualliflikda), “O‘zbek mavsumiy marosim folklori”, “Folklor praktikasi”, “Folklorshunoslik asoslari”, “Folklor amaliyoti” kabi o‘quv qo‘llanmalarini yozgan. 2017-yilda uning rahbarligi va bevosita ishtirokida “XX asr o‘zbek folklorshunosligi” antologiyasi, 2021-yilda “O‘zbek folklorshunosligi” monografiyasi nashr etilgan. Bugungi kunda ushbu qo‘llanmalar talabalarning bilimini oshirishga xizmat qilib kelmoqda.

Mamatqul Jo‘rayev umrining so‘nggi yillarida nashrga tayyorlagan “O‘zbek folklorshunosligi” nomli yirik monografiyasi o‘zbek folklorshunosligi uchun qimmatli manba hisoblanadi [8]. Mazkur monografiyada o‘zbek folklorshunosligining filologik yo‘nalishdagi fan sifatida shakllanishi va taraqqiy etishiga hissa qo‘shgan folklorshunoslar haqida keng ma’lumotlar berilgan. Monografiya folklorshunos Bekjon Rahmon faoliyati bilan boshlanadi va 190 nafar folklorshunosning o‘zbek folklorshunosligiga oid har bir ishi haqida batafsil ma’lumot beradi. Ushbu monografiyadan folklorshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlari va faoliyati haqidagi kerakli ma’lumotlarni tez va oson topish mumkin, shu bois u nafaqat folklorshunoslar, balki filologiya sohasida tadqiqot olib borayotganlar uchun ham qimmatli manba vazifasini o‘taydi, deb hisoblaymiz.

Olim faoliyatiga berilgan baho

Yetuk folklorshunos olim Mamatqul Jo‘rayevning o‘zbek folklorshunosligiga qo‘shgan hissasi ustozlari, zamondoshlari, xorijlik olimlar va shogirdlari tomonidan yuksak baholangan. Olimning ilmiy tadqiqotlari hamda ustozlik faoliyati haqida bildirilgan e’tiroflarni uning asarlariga yozilgan so‘zboshi va taqrizlardan, olim tavalludining 60 yilligi munosabati bilan nashr qilingan “O‘zbek folklorshunosligi masalalari” VI ilmiy maqolalar to‘plami [2], “Semurg‘ qo‘nar davlatmandning boshiga” [7] kabi risolalarda keltirilgan fikr-mulohazalardan bilib olish mumkin. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan tayyorlangan “Taniqli folklorshunos olim Mamatqul Jo‘rayev xotirasiga bag‘ishlanadi” sarlavhali video lavha [12] hamda shogirdlarining jonkuyar ustoz haqida bildirgan fikrlari orqali olimning ilmiy faoliyati va shaxsiyatini yanada yaxshiroq anglash mumkin.

Mamatqul Jo‘rayevning “Navro‘z bayrami” asariga folklorshunos olimlar To‘ra Mirzayev va Asqar Musaqulovlar yozgan so‘zboshida olimning sermahsul ilmiy faoliyati e’tirof etilgan: “…u jahon va o‘zbek folklorshunosligi, etnologiyasi, arxeologiyasiga doir juda ko‘plab ilmiy, badiiy adabiyotlar bilan tanishib chiqdi. O‘zbekistondan tashqari hozirgi kunda mustaqil davlatlar maqomiga erishgan Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston

respublikalarida ilmiy safarlarda bo‘ldi. “Kabinet” olimi emas, xalq ichida doimo faol izlanishda bo‘lgan olim sifatida shakllandi, etnofolkloristik yo‘nalishdagi tadqiqotlari bilan fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajalari, professor ilmiy unvoniga erishdi” [13, 7-b.]. Ta’riflardan ayon bo‘ladiki, Mamatqul Jo‘rayev xalq durdonalarini to‘plashda faqatgina O‘zbekiston hududidagi ekspeditsiyalar bilan cheklanib qolmay, qo‘shni davlatlarda ham ekspeditsiyalar uyushtirgan. Bu uning faoliyati qanchalik keng qamrovli ekanidan dalolat beradi.

Ustozlik faoliyati

Har bir olimning ilmdagi yutuqlari nafaqat uning yaratgan ilmiy asarlari salmog‘i, balki shogirdlari soni bilan ham belgilanishi bejiz emas. Chunki olimlar o‘z tadqiqotlari yo‘nalishida aniqlagan ilmiy yangiliklarini shogirdlarining ilmiy izlanishlari orqali fanga olib kiradilar va shu yo‘l bilan o‘z ilmiy yo‘nalishining nazariy ufqlarini kengaytirishga, uning yanada rivoj topishiga erishadilar.

Mamatqul Jo‘rayev fidoiy ustoz bo‘lgani tufayli atrofiga ko‘p sonli yosh olimlarni to‘play oldi. U ilm yo‘liga kirgan yosh olimlardan hech qachon yordamini ayamagan mehribon ustoz folklorshunoslardan biri bo‘ldi. Olim tarbiyalab yetishtirgan shogirdlarini o‘zi izlanayotgan ilmiy yo‘nalishga keng jalb eta olgan. Uning ilmiy rahbarligida 1 nafar fan doktori, 9 nafar fan nomzodi, 8 nafar magistr tayyorlangan. Olim nafaqat respublikamiz, balki xorij mamlakatlari uchun ham yuqori ilmiy malakali mutaxassislar tayyorlashda katta tajribaga ega. Jumladan, 2014-yil 17-dekabr kuni professor Mamatqul Jo‘rayevning ilmiy maslahatchiligida Janubiy Koreyaning Seul shahridagi Dongkok xotin-qizlar universiteti professori Ingyong O “Alpomish” va “Jumong” dostonlarining qiyosiy tipologiyasi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi fan doktori ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengashda himoya qildi. Bundan oldinroq olim qo‘shni Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti o‘qituvchisi Oqibatxon Ismonovaning “O‘zbek to‘y marosim folklorida “kelin salom” janri (o‘ziga xos xususiyatlari, genezisi va poetikasi)” mavzusidagi nomzodlik ishiga ham ilmiy rahbarlik qilgan.

Yetuk olim tomonidan nashr etilgan monografiya va risolalar, kitob va to‘plamlar, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalarning soni 750 ga yaqin. Ulardan o‘zbek folklorshunosligining dolzarb masalalariga doir 58 ta kitob, shu jumladan, 16 monografiya, 3 ta darslik, 6 ta o‘quv qo‘llanma va 4 ta kitobi xorijiy mamlakatlarda nashr etilgan. Mana shu raqamlarning o‘ziyoq olimning mehnatsevarligi, doimiy ravishda izlanishda bo‘lganligi va katta ilmiy salohiyatidan dalolat beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Mamatqul Jo‘rayev o‘zbek folklorshunosligida sehrli raqamlar, samoviy afsonalar, mifologiya, mavsumiy marosim folklori va Navro‘z bayrami kabi kam o‘rganilgan yo‘nalishlarni fundamental darajada tadqiq etgan yetuk olimdir. Uning ilmiy merosi, o‘quv adabiyotlari, xalqaro hamkorligi va shogirdlari faoliyati o‘zbek folklorshunosligining nazariy ufqlarini kengaytirib, fanning bugungi rivojiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan marosimdagi nutqi // Xalq so‘zi gazetasi. – 2019-yil, 7-aprel, №68 (72–98). – B. 1.
2. O‘zbek folklorshunosligi masalalari: Ilmiy to‘plam. VI. – Toshkent, 2017.
3. Jo‘rayev M. Miflarning yozma adabiyotga munosabati // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1980. – 6-son. – B. 41–45.
4. Jo‘rayev M. O‘zbek folklorining epik janrlari (“O‘zbek folklorining epik janrlari” kitobiga taqriz) // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1982. – 5-son. – B. 61–65.
5. Jo‘rayev M. Ertaklardagi an’anaviy uch yo‘l motivining genezisi // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1983. – 3-son. – B. 31–36.
6. Jo‘rayev M. “To‘rt” raqamining ertaklardagi badiiy funksiyasi // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1985. – 3-son. – B. 43–44.
7. O‘rayeva D. Semurg‘ qo‘nar davlatmandning boshiga. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.
8. Jo‘rayev M. O‘zbek folklorshunosligi. – Toshkent: Firdavs-Shoh, 2021.
9. Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. – Toshkent: Fan, 1974. – 222 b.
10. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. – Toshkent: Fan, 1986.
11. Jo‘rayev M. Navro‘z bayrami. – Toshkent: Fan, 2009.
12. Taniqli folklorshunos olim Mamatqul Jo‘rayev xotirasiga bag‘ishlanadi [video lavha]. – URL: www.academy.uz
13. Mirzayev T., Musaqulov A. Ezgulikka yo‘g‘rilgan e’tiqod talqini // Jo‘rayev M. Navro‘z bayrami. – Toshkent: Fan, 2009.